

# ESHITISH IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMPYUTER DASTURIY VOSITALARIDAN FOYDALANISH

*Gulhayo Yoqubova Erkin qizi*  
*Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi*

## USE OF COMPUTER SOFTWARE IN IMPROVING THE PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISM OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

*Gulhayo Yakubova Erkin qizi*  
*Teacher at Karshi International University*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik himoya mexanizmini rivojlantirishda zamonaviy kompyuter dasturiy vositalarining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, stress va xavotirni kamaytirish, shuningdek, ijtimoiy muhitga moslashuvini kuchaytirishga qaratilgan maxsus dasturiy vositalarning samaradorligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar, psixologik himoya mexanizmlari, kompyuter dasturiy vositalari, interaktiv dasturlar, stressni boshqarish, hissiy rivojlanish, maxsus ehtiyojga ega bolalar, psixologik yordam, o'quv texnologiyalari, virtual o'yinlar, maxsus ta'lim, bolalar psixologiyasi, psixologik ta'sir, ijtimoiy moslashuv, rivojlanish jarayoni, o'zini anglash.

**Abstract:** This article is devoted to the study of the importance of modern computer software in the development of psychological defense mechanisms in children with hearing impairments. The effectiveness of special software aimed at increasing children's self-confidence, reducing stress and anxiety, as well as enhancing their adaptation to the social environment is analyzed.

**Keywords:** Children with hearing impairments, psychological defense mechanisms, computer software, interactive programs, stress management, emotional development, children with special needs, psychological support, educational technologies, virtual games, special education, child psychology, psychological impact, social adaptation, developmental process, self-awareness.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha sohalarida o'z aksini topgan bo'lsa, psixologiya sohasida ham ularning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturiy vositalar ularga nafaqat ta'lim jarayonida, balki psixologik qo'llab-quvvatlashda ham yordam beradi.

Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarda stress va xavotirni kamaytirish, ularda o'zini himoyalangan his qilish hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ular ko'pincha ijtimoiy muhitga moslashish va o'z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularda xavotir darajasining oshishiga va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Psixologik himoya

mexanizmi esa insonning tashqi stress omillariga nisbatan moslashuvchanligini oshiradi, ichki muvozanatni ta'minlaydi va salbiy ta'sirlarga bardosh berish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu bois, bunday mexanizmlarni shakllantirish va rivojlantirish eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada mazkur maqsadlarni amalga oshirishda kompyuter dasturiy vositalarining roli o'rganiladi. Ushbu vositalar bolalarning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning hissiy holatini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish va stress omillariga nisbatan chidamliligini oshirishda samarali vosita sifatida ko'riladi. Dasturiy ta'minot yordamida taqdim etiladigan turli interfaol mashg'ulotlar, vizual o'yinlar va treninglar bolalarning psixologik himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus modullarning ishlab chiqilishi, ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlarni qo'llash imkoniyatlari alohida tahlil qilinadi.

Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus o'quv dasturlari bolalarning kognitiv va psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu dasturlar orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvi, bilimlarini mustahkamlash va shaxsiy ishonchini oshirishga erishish mumkin. Bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda maxsus o'quv dasturlari bolalarga turli ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, virtual o'yinlar orqali ular o'zini maktab, do'stlar yoki jamoa ichida qanday tutishni o'rganadi. Ushbu jarayon ular uchun xavfsiz muhitda o'z ijtimoiy ko'nikmalarini sinab ko'rishga imkon beradi. Bilimlarni mustahkamlashda vizual va interfaol materiallar yordamga keladi bunday dasturlar turli xil rang-barang vizual materiallar, animatsiyalar va audiovizual darsliklar orqali bolalarning bilimlarini mustahkamlaydi. Masalan, mavzuni o'rgatishda maxsus grafika va animatsiyalar qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Shu bilan birga, bolalarning e'tiborini ushlab turishga yordam beradi. Individual ehtiyojlarga moslashtirilgan mashg'ulotlarda o'quv dasturlari individual yondashuvni qo'llash imkonini beradi. Masalan, har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish darajasiga moslashtirilgan mashg'ulotlar yaratiladi. Bu orqali bolalar qiyinchiliklarsiz o'quv jarayoniga jalb qilinadi va ularning shaxsiy o'sishi ta'minlanadi. Bundan tashqari maxsus video darsliklar va simulyatsiyalar mavjud bunda bolalar uchun ishlab chiqilgan maxsus video darsliklar mavzuni vizual tarzda ko'rsatib beradi. Audiovizual simulyatsiyalar esa ularga turli ijtimoiy va hayotiy vaziyatlarda qanday qaror qabul qilishni o'rgatadi. Bu dasturlar bolalarning nafaqat bilim olishida, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanishida ham katta yordam beradi.

Interfaol o'yinlar faoliyati bolalarning o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu o'yinlar bolalarning faolligini rag'batlantiradi, ularga yangi bilim va ko'nikmalarni qiziqarli shaklda o'rgatadi, hamda kompyuter dasturlari internet orqali keng tarqatilishi, mobil qurilmalarda ishlashi va foydalanuvchi uchun qulay interfeysga ega bo'lishi kerak. Bu dasturlardan foydalanishni osonlashtiradi va ulardan kengroq foydalanuvchi guruhini jalb qiladi. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturlari ularning kognitiv va psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlash va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Psixologik muammolarni hal qilishda kompyuter dasturiy vositalari psixologik maslahatlar sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu vositalar bolalarning stress darajasini pasaytirish, emotsiyalarni boshqarish va hissiy-intellektual rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda samarali natijalar beradi. Stressni boshqarish va kamaytirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar orqali bolalar nafas olish texnikalari, meditatsiya mashg'ulotlari va autogen mashqlarni o'rganadi. Ushbu texnikalar bolalarning ruhiy tinchligini tiklash va ularda xavotirni kamaytirishga yordam beradi, hamda bolalarning emotsional rivojlanishini ta'minlash uchun maxsus dasturlar ishlatiladi. Masalan: Emotsiyalarni aniqlashda interfaol o'yinlar yordamida bolalar o'z va boshqalar emotsiyalarini tushunishni o'rganadi. Emotsiyalarni boshqarishda stressli vaziyatlarda qanday qilib o'zini tinchlantirishni va ijobiy emotsiyalarni targ'ib qilishni o'rgatadigan modullar mavjud. Muloqot ko'nikmalarida esa ushbu dasturlar orqali bolalar ijtimoiy muhitda o'zini to'g'ri ifodalash va muloqotni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bolalarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga yordam berish uchun maxsus diagnostika tizimlari ishlab chiqilgan. Ushbu tizimlar:

- Testlar yordamida bolalarning psixologik holatini baholaydi.
- Aniqlangan muammolar asosida individual maslahatlar taqdim etadi.
- Rivojlanish rejasini tuzish uchun psixolog va ota-onalarga foydali ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bolalarning rivojlanishida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vositalari onlayn platformalar orqali bolalarga muloqot qilish imkoniyatini beradigan dasturlar bolalarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Ushbu vositalar ularga boshqa bolalar va mutaxassislar bilan aloqada bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Bolalarda samarali kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Ushbu dasturlar bolalarning o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish

qobiliyatini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan. Quyida kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli dasturlar va ularning afzalliklari kengroq bayon etiladi:

Bu dasturlar bolalarga turli hayotiy vaziyatlarda o'zini qanday tutishni o'rgatadi. Imitatsiya orqali o'qitish texnologiyasi Rolli o'yinlarni, muommoli vaziyatlarni, o'zini boshqalar o'rniga qo'yish mashqlarini o'z ichiga oladi:

Bolalarga matn, rasmlar va audio orqali muloqotni rivojlantirish, bunday platformalar bolalarning sezgi organlari va e'tiborini jalb qilish orqali o'qitishni qiziqarli va samarali olib borilishiga sabab bo'ladi. O'yinlar orqali o'qitish muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi:

Bugungi kunda texnologiyalar bolalar bilan ishlashda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu jumladan: Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanib, bolalar o'zlarini turli muhitlarda sinab ko'rishlari mumkin. Bu nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu dasturlar bolalarning nafaqat kommunikatsiya ko'nikmalarini, balki ijtimoiy hayotga moslashish darajasini ham oshiradi. Ularni muntazam ravishda o'tkazish bolalarning o'z fikrlarini aniq ifodalashini, boshqalarni tinglashni va samarali muloqot qilishni o'rganishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun psixologik himoya mexanizmlarini takomillashtirishda kompyuter dasturiy vositalarining o'rnini nihoyatda muhimdir, chunki bu bolalarning o'z hissiyotlarini boshqarish va ifodalashda, shuningdek, psixologik reabilitatsiya jarayonini samarali amalga oshirishda katta yordam beradi. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, interaktiv va ko'p shaklli dasturlar orqali, bolalar uchun xavfsiz va samarali o'rganish muhitini yaratadi.

Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar ko'pincha ijtimoiy va psixologik rivojlanishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning asosiy muammolaridan biri – hissiyotlarini to'g'ri ifodalashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Kompyuter dasturlari, o'z navbatida, bu bolalarga stressni boshqarish, o'z hissiyotlarini tan olish va o'zini anglashda yordam beradi. Masalan, interaktiv o'yinlar va o'quv dasturlari orqali bolalar o'z hissiyotlari va his-tuyg'ularini ochish va ifodalash uchun maxsus mashqlarni bajaradilar. Bu jarayon, nafaqat hissiyotlarni anglashga, balki bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga ham yordam beradi.

Kompyuter texnologiyalarining o'ziga xos xususiyati – ularning interaktivligi. Interaktiv dasturlar bolalarga turli xil vaziyatlarni model qilish, o'zgaruvchan sharoitlarda turli reaktsiyalarni ko'rish va o'z his-tuyg'ularini tan olish imkonini beradi. Misol uchun, virtual o'yinlar orqali bolalar, turli ijtimoiy vaziyatlarda

qanday reaksiya ko'rsatishni o'rganadilar. Bunday o'yinlar, aslida, bolalarga psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular o'z hissiyotlarini boshqarish, stressni kamaytirish va psixologik holatni tahlil qilishda yordam beradi.

Bundan tashqari, kompyuter dasturlari orqali bolalarga vizual va auditorial stimullar orqali o'rganish imkoniyatlari taqdim etiladi. Masalan, ovozli yordamchi tizimlar yoki ko'rinishdagi belgilash vositalari yordamida bolalar o'z hissiyotlarini ifodalashda va stressni boshqarishda qulaylikka ega bo'ladilar, hamda psixologik rehabilitatsiya jarayoni, asosan, bolalarning ruhiy va hissiy holatlarini tiklashga qaratilgan. Kompyuter dasturlari, ayniqsa, interaktiv o'yinlar va trenajyorlar orqali bolalarning stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Dasturlar, stressni boshqarish, o'zini anglash, ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganish kabi sohalarda to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bolalar, o'z his-tuyg'ulari va hislari haqida gaplashishda va ularni tahlil qilishda yordam beradigan dasturlar orqali psixologik jarayonlarni yaxshiroq tushunadilar.

Kelajakda, eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun kompyuter dasturlarining imkoniyatlari yanada kengayishi kutilmoqda. Hozirgi kunda mavjud dasturlar bolalarga oddiy interaktiv yordamni taqdim etadi, ammo keyinchalik ularning imkoniyatlari yanada boyitilishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalar bilan individual muloqotda bo'lish, ularning hissiy holatini aniqlash va unga mos ravishda dasturiy yordamni taqdim etish mumkin bo'ladi. Kompyuter dasturlari eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun psixologik himoya mexanizmlarini takomillashtirishda samarali va qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dasturlar bolalarga o'z hissiyotlarini tan olish va boshqarishda, stressni kamaytirishda va psixologik rehabilitatsiya jarayonini tezlashtirishda yordam beradi. Kelajakda texnologiyalarni rivojlantirish, bolalarning psixologik yordam olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sifatli qilishga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qodirov, F. *Nogiron bolalarning psixologik rivojlanishi va rehabilitatsiyasi*. 2016 Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Kasimova, N. *Maxsus ta'lim va psixologiya*. 2017 Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Raxmatullayeva, Sh. *Psixologik yordam va rehabilitatsiya: Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun metodlar*. 2019 Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
4. Mirmatov, T. *Bolalarning psixologik himoya mexanizmlari va ularni rivojlantirish*. 2015 Toshkent: Ma'naviyat.

5. Sul'tonova, R. *Kompyuter texnologiyalarining bolalar psixologiyasiga ta'siri*. 2018 Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.